



DORIVOR ERMONNING DORIVORLIK ISTQIBOLLARI

Ergashev Azamat Azimovich¹¹Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisiChoriyev Jahongir Olimjon o'g'li²²Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: choriyevjahongir082@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7371145>

ARTICLE INFO

Received: 10th November 2022Accepted: 20th November 2022Online: 28th November 2022

KEY WORDS

A. absinthium, in vitro, ko'chatchilik, 0,5-2% efir moyi, absintin va anabsintin achchiq glikozidlar, organik (olma, kaxrabo) kislotalar, flavinodlar, xamazulen, vitamin C, karotin, oshlovchi moddalar

ABSTRACT

Bugungi davrda o'simliklarni global miqyosda saqlash va ko'paytirish muammosini hal qilish strategiyalari va yondashuvlarni ishlab chiqish kerak. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda rivojlanishning yangi istiqbolli yo'nalishi – biotexnologik tadqiqotlar qayd etildi. Bu yangi ilm-fan yo'nalishi bo'lib, uning asosiy vazifasi, mavjud bioxilma-xillikni saqlab qolish uchun mavjud an'anaviy usullarni zamonaviy biotexnologik vositalar bilan to'ldirishdir, genetik resurslarni barqaror boshqarish imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

A. absinthium o'simligini barqaror kulturalarini ishlab chiqarish sanoat miqyosida ikkilamchi metabolitlarni, xususan artemisinin, xamazulen va efir moylarini ishlab chiqarishda muhimdir. Bu usulning yana bir muhim tomoni shundaki dalada o'stiriladigan o'simliklar biotik va abiotik stresslarga nisbatan chidamsiz bo'ladi, In vitro usuli orqali biz muammoni yechishimiz mumkin.

Tadqiqot ishining maqsadi Dorivor achchiq ermon – Artemisia absinthium L. ni in vitro usulida ko'paytirishning optimal sharoitlarini tanlash hamda amaliyotga joriy etish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bugungi kunda yurtimizda dori-darmon ishlab chiqarish tarmog'ining dorivor vositalarni tabiiylashtirish va dorivor o'simliklar xomashyosiga bo'lgan ehtiyojni qondirish dolzarb vazifalardan biridir. 2020-yilning 26 noyabr sanasida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 4901 sonli "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora tadbirlar to'g'risida" qarorini qabul qilinishi dorivor o'simliklarni xususan dorivor ermon (*Artemisia absinthium* L.) o'simligini ham rivojlantirish yo'lida ulkan amaliy qadam bo'ldi.

Dorivor o'simliklarni o'rganish jarayonida mahalliy o'simlik istiqbollarni tadqiq qilish ilmiy vazifa sifatida qo'yildi. Izlanishlar doirasida biologik faol moddalarga boy bo'lgan shuvoq o'simligi tadqiq qilindi. Murakkabguldoshlar (*Asteraceae*) oilasiga jahon florasida 400 dan ortiq turi, MDH davlatlarida esa 174 ta tur o'simlik kiradi. Oilaning eng keng tarqalgan

vakili Dorivor shuvoq – *Artemisia absinthium* L. [2,3] Dorivor ermon bo'yi 50-100 sm keladigan ko'p yillik o't. Poyasi tik o'suvchi, biroz qirrali bo'lib, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari uzun bandli, uchburchak, yumaloq, ikki-uch marotaba patsimon qirqilgan. Yuqoridagilari esa uch bo'lakli bo'lib, poyada ketma-ket joylashgan. Ermonning poya va bargida tuklar ko'p bo'lganligi uchun o'simlik kumushsimon rangda ko'rinadi. Gullari mayda, sariq, savatchaga to'plangan. Gullari ro'vaksimon gulto'plamni hosil qiladi. Urug'i o'tkir uchli cho'zinchoq qo'ng'ir rangli. May-iyun oylarida gullaydi, urug'i sentyabrda yetiladi. Ermon ayniqsa Toshkent, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo viloyatlari territoriyasida ko'p uchraydi. Bug'doyzorlarda, ariq bo'ylarida, yo'l yoqalarida, tog' yonbag'irlarida hamda begona o't sifatida ekinlar orasida uchraydi.

A, *absinthium* ko'plab mamlakatlarning milliy farmakopeyalariga kiradi. Efir moyli A. *absinthium* va unga asoslangan preparatlar oshqozon-ichak trakti, jigar kasalliklarini davolashda va hazm qilishni yaxshilash, antioksidant, antimikrobiyal, antispazmodik, antifungal, og'riq qoldiruvchi, insektitsid, yallig'lanishga qarshi, sedativ va boshqa xususiyatlarga ega [4,5]. Ilmiy adabiyotlarda efir moyining quyidagi asosiy komponentlari berilgan Sabinen, sabinilasetat, trans sabinol, a va b-tuyon, hamazulen, p-zimen, 1,8-sineol, epoksiotsimen [6]. Eksperimental va klinik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, Shuvoq tarkibidagi dorivor hamda efir moddalar odam organizmidagi bir qator salbiy o'zgarishlarni bartaraf etishda qo'llaniladi. Ayni paytda achchiq shuvoq zamonaviy tibbiyotda keng qo'llaniladi ichki sekretiya etishmovchiligi bilan kechadigan kasalliklar oshqozon-ichak trakti yallig'lanishining o'tkir hodisalari, gastrit, oshqozon yarasi va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, diareya, kolit, gepatit, xoletsistit, xolangit, safro va urolitiyoz, surunkali pankreatit, arterial gipotenziya, gipotonik tipdagi neyrokirkulyatsiya distoni, patologik menopoz, homiladorlikning erta toksikozlari, hipomenstral sindrom [6]. O'tkir gastritda qo'llash mumkin emas. Dori-darmon shakllaridan hozirgi vaqtda achchiq ermonni damlama va nastoykasi ishlatiladi.

Xulosa qilar ekanmiz fikrimizcha dorivor ermon o'simligining o'ziga xos dorivorlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda joylarda maxsus ermon plantatsiyalarini tashkil qilish davr talabiga aylanib bormoqda. Buning uchun o'simliklarni o'stirishni noananaviy usullaridan foydalanish talab etiladi. o'simlikni o'stirishda zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish xususan biotexnologiyaning o'simliklarni o'stirishda Invitro usulini joriy qilish kerak. Bu orqali qisqa fursatda yuqori darajada o'simlik kulturasuni olishimiz mumkin. Jarayon bizga juda katta iqtisodiy foyda keltirishi bilan bir qatorda vaqt tejatlashini ham kafolatlaydi. Hozirda tadqiqotlqrimiz aynan *Artemisia absinthium* o'simligini o'sish va rivojlanishiga Invitro usulini joriy qilishga asoslanadi. Tibbiy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega bo'lgan Dorivor achchiq ermon (*Artemisia absinthium* L.) in vitro usulida ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy bo'yicha tadqiqotlar olib borish dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish orqali ularning zahiralari yaratish, Surxondaryoning foydalanmayotgan maydonlaridan oqilona foydalanish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafоеv S.M. "Botanika" Toshkent 2002
2. Altunkaya A., Yildirim B., Ekici K., Tezioglu O. Determination essential oil composition, anti-bacterial and antioxidant activity of water

wormwood extracts // GIDA. 2014. V. 39 (1). P. 17 – 24.

3. Tan R.X., Zheng W.F., Tang H.Q. Biologically active substances from the genus *Artemisia* // *Planta Med.* 1998. V. 64. P. 295 – 302.

4. Erel S.B., Reznicek G., Senol S.G. Antimicrobial and antibacterial properties of *Artemisia L.* species from Western Anatolia // *Turk. J. Biol.* 2012. № 36. P. 75 – 84.

5. Hadi A., Hossein N., Shirin P. Anti-inflammatory and analgetic activities of *Artemisia absinthium* and chemical composition of its essential oil // *Int. J. Pharm. Sci. Rev. Res.* 2014. № 24 (2). P. 237 – 244.

6. Riani L., Chograni H., Elferchichi M. Variations on Tunisian wormwood essential oil profiles and phenolic contents between leaves and flowers and their effects on antioxidant nactivities // *Ind. Crops and Prod.* 2013. V. 46. P. 290 – 296.